

16. Annotasiya.

O'quv-uslubiy majmuada 5580200- Binolar va inshootlari qurilishi, 5580400- Muxandislik kommunikasiyalari qurilishi, 5140900 –Kasb ta'limi (Bino va inshootlar qurilishi), 5140900–Kasb ta'limi (Muxandislik kommunikasiyalari qurilishi, 5580500-Qurilish materiallari va buyumlari ishlab chiqarish texnologiyasi ta'lim sohasi yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga “Materiallar qashiligi” fanini o'qitish bo'yicha zamonaviy ta'lim texnologiyalari, ularni o'quv jarayoniga qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar bayon etilgan. Ushbu tavsiyalar didaktik tamoyillar, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tish texnologiyalarini ishlab chiqishning usul va vositalari, ularning muhim belgilaridan iborat ta'limni pedagogik texnologiyalash qoidalarini hisobga olgan holda loyihalashtirilgan. Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni baholash kabi masalalar keng yoritilgan.

O'quv-uslubiy majmuaning tarkib mazmuni quyidagi qismlarni o'quv dastur, ishchi dastur, ta'lim texnologiyasi, texnologik xaritasi, masalalar va mashqlar to'plami, testlar, nazorat uchun savollar (JN, ON, YaN), umumiy savollar, tarqatma materiallar, glossariy, referat mavzulari, adabiyotlar ro'yxati, tayanch konspekt, o'quv materiallari (ma'ruza matni, Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, o'vuv qo'llanmalar), xorijiy manbalar, grafik hisoblash ishlari mavzulari, annotasiya, muallif haqida ma'lumot, foydali maslahatlar, normativ hujjatlar va baholash mezonlarini o'z ichiga oladi.

O'quv-uslubiy majmua oliy ta'lim muassasalarida arxitektura va qurilish sohasi yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar shu jumladan qurilish yo'nalishida o'qiyotgan magistrLAR, ilmiy izlanuvchilar va yosh o'qituvchilar hamda materiallar qarshiligiga doir fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash jaryonlariga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

